

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022 **2022**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

31

YOSHDA

1 SENTYABR – MUSTAQILLIK KUNI

**SENTYABR****№44**

CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.l, 2-uy.

+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uzwww.conferences.uz

**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
3-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-3**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-3**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 44-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 сентябрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 17 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛANIШЛАР

1. Hamidova Muyassarbonu Odiljon qizi	
ROSSIYA IMPERIYASINING O'RTA OSIYODAGI MUSTAMLAKACHILIK	
SIYOSATINING O'ZBEK XALQI MADANIYATIGA TA'SIRI	7
2. Oxunova Dilafruz Muminovna	
TEMURIYLAR DAVRIDA FAN VA TA'LIM	9
3. Sobirova Xusnora Anvar qizi	
ROSSIYA IMPERIYASI TOMONIDAN O'RTA OSIYONI BOSIB OLISH UCHUN	
ISTILOCHILIK HARAKATLARI.....	11
4. Ermetova Dilnoza Palvannazirovna, Adamboyevna Gulbahar Sobirovna	
O'QUVCHILARDА TARIXNI BILISH ORQALI O'ZLIKNI ANGLATISH	
USULLARI	13
5. Kupaysinov Ismoil	
JAMOAT TRANSPORTI: TRAMVAY TARIXIGA BIR NAZAR	15



ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛANIШЛАР

ROSSIYA IMPERIYASINING O'RTA OSIYODAGI MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATINING O'ZBEK XALQI MADANIYATIGA TA'SIRI

Hamidova Muyassarbonu Odiljon qizi
Toshkent ORIENTAL Universiteti
Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida rus hukumatining o'l kamizda olib borgan mustamlakachilik siyosati va uning madaniyatimizga ta'siri, ijobjiy va salbiy oqibatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: ruslashtirish, mustamlakachilik, madaniyat, madaniy meros, rus-tuzem maktablari, til, turmush.

O'rta Osiyo xonliklari Rossiya mustamlakasiga aylangandan so'ng Rossiya imperiyasi Turkiston xalqini ma'naviy-madaniy jihatdan tutqinlikka solish, o'zining uzoqqqa mo'ljallangan manfaatiga bo'ysundirish siyosatini yuritdi. Uning mohiyati, mazmuni mahalliy xalqni uning milliy, tarixiy ildizlaridan uzib tashlash, xalqning ma'naviy, madaniy, tarixiy merosini yo'q qilish, ruslashtirishdan iborat edi. Turkiston general-gubernatorligining Farg'on'a viloyati harbiy-gubernatori Skobelev so'zi bilan aytganda: «Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, san'atini, tilini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi» Turkistonda ana shunday yovuz qarashlarga mos siyosat va amaliyot yuritildi. Mustamlakachilar tomonidan o'zbek xalqining boy madaniyati talon taroj qilindi. O'zbeklarning qimmatbaho tarixiy asori atiqalari va boy yozma manbalari Peterburg va Moskvaga tashib ketildi. San'at darajasida ishlangan Muhammad Rahim taxti, Amir Temur maqbarasining naqshinkor darvozasi, undagi bitiklar, oynalar, oltin koshin-lar, Ahmad Yassaviy maqbarasidagi naqshinlar, katta qozon («Nazrniyoz qozoni») turli tarixiy buyumlar, noyob kitoblar va boshqalar shular jumlasidandir. Ma'naviyat va madaniyatning asosiy belgilaridan biri din hisoblanishini yaxshi bilgan mustamlakachilar tomonidan Islom diniga e'tiqod, ruhoniylar, masjid va madrasalar oyoq osti qilindi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa axolini dindan ajratgan holda o'z madaniyatini singdirishdan iborat edi. Rossiya ma'murlari musulmon muassasalari, madrasa ishlariga aralashib, ularning faoliyatini tobora cheklab bordi. Maorif va madaniyat sohasida ruslashtirish siyosati yuritildi. Turkistonlik bolalarni ruslar bilan aralashtirib o'qtish va tarbiyalash g'oyasi ilgari surildi va 1884-yilda Toshkentda dastlabki «rus-tuzem maktabi» ochildi. XIX asr oxirida ularning soni yuztadan oshib ketdi. Bunday maktablarda rus va o'zbek muallimlari dars mashg'ulotlarini o'tadigan bo'ldi. Maqsad o'zbek yoshlariga rus tilini o'rgatish va rus turmush tarzini singdirish edi. Rus tilini yerli aholiga singdirish uchun aynan tilni o'rgatish va bu orqali xalqni madaniyatidan uzoqlashtirish edi.

Rossiya ma'murlari yerli aholi bolalarini «rus-tuzem maktablari»ga jalb qilish, qiziqtirish uchun o'lkadagi mahalliy ma'muriyat boshqaruvida rus tilini bilganlar ishlaydi, degan talabni qo'yadilar. Bu talabdan maqsad «yerlilarda mansabga qiziqib» rus tilini o'rganish, ruslashish manfaatini uyg'otish edi. Rus tilini bilgan mahalliy aholi vakillariga imtiyozlar yaratildi. Shu tariqa, o'lkada ish yuritish asta-sekin rus tiliga o'tkazila bordi. Mahalliy aholiga Rossiyaning ulug'vorligini ko'rsatish, yevropacha turmush tarziga qiziqtirish uchun Rossiyaning markaziy shaharlariga sayohatlar uyushtirildi. Katta yoshdagilarni, shuningdek, yoshlarni guruh-guruh qilib, Peterburg, Moskva va boshqa shaharlarga olib borib, oq podshohning qudratini, baland imoratlar, ishlab chiqarish korxonalarini ko'rsatishadi. Mustamlakachilar sayohatchilar o'z yurtiga qaytib borgach, Rossiyaning ulug'vorligi haqida vatandoshlariga so'zlab beradi, Rossiya tarkibida bo'lganidan g'ururlanadi, degan maqsadda edilar. Bu tadbirlar ruslashtirish manfaatlarini ko'zlab uyuştilirardi. Mustamlakachilarining yerli aholi turmushiga ma'naviy-ruhiy tazyiq o'tkazish dasturida o'lka xotin-qizlarini ruscha hayot tarziga o'rgatish masalasiga alohida o'rinn berilgan edi. Shu maqsadda, shaharlarda xotin-qizlar ambulatoriyalari tashkil etilib, ularda rus shifokorlari



faoliyat ko‘rsatdi. Ambulatoriyalarda ayollarga zarur tibbiy maslahatlar, tibbiy yordamlar ko‘rsatildi, bu ijobjiy hol, albatta. Shu bilan birga, ayollarga ruscha turmush tarziga o‘tish, ularning farzandlari tarbiyasiga ta’sir etish, pravoslavcha qarashlarning afzalligi, «paranji zulmidan xalos bo‘lish, ochilish» zarurligi haqida tashviqot qilindi. Albatta ushbu amalga oshirilgan ishlarning asl maqsadi o‘zbek xalqiga rus madaniyatini singdirish orqali o‘z madaniyatidan uzoqlashtirishdan iborat bo‘ldi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, rus hukumati mustamlakachilik siyosati bosqichma bosqich amalga oshirdi. Bundan ko‘zlangan maqsad esa xalqni ma’naviyatidan ayirish, o‘zliklarini unutishlari uchun yangicha madaniyatni olib kelishdi.

Shuni ham tan olish kerakki mustamlakachilar tomonidan o’lkaga ko’plab kommunikatsiya, texnika yangiliklari va ilm fan kirib kelganini tan olish kerak. Lekin ular yetkazgan ziyon olib kelgan yangiliklardan ancha ko‘p edi. Birinchi Prizidentimiz I.A.Karimov takidlaganidek «Bu salbiy oqibat tashqaridan olib kirilgan sivilizatsiya natijalaridan ko‘ra bir necha barobar ortiq edi».

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bog‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: «O‘zbekiston», 1997. 55-bet.
2. Q. Usmonov, M. Sodiqov, S.Burxonova "O‘zbekiston tarixi" Toshkent «Iqtisod-moliya» 2016.
3. Internet materiallari.



TEMURIYLAR DAVRIDA FAN VA TA’LIM

Oxunova Dilafroz Muminovna

Fargona shahar 4-umumta’lim maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Temuriylar davrida ilm-fan, maorif davlat an’anasiga aylanib, ma’rifatga hukmdorlar, shahzodalar, malikalar, vazirlar, savdogarlar, hunarmandlar kata hissa qo’shgan. Ushbu maqolada Temuriylar davrida ta’lim va ilm-fan taraqqiyoti tarixiy manbalar aosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Temuriylar, ilm-fan, maorif, Shohruh, Ulug‘beklar, Xuroson, Movaronunaxr, Mirxon, Klavixo

Qadim zamonlardanoq masjidlarda, ulamolar uylarida, ba’zan ularning bozordagi do’konlarida dars o’tgan. Kutubxonalarda, kitob do’konlarida, eng muhimi ilm kashshoflari bo’lgan vazirlar turar joylarida muntazam ilmiy munozaralar bo‘lib o’tdi.

XV asrning birinchi yarmida Shohruh va Ulug‘beklar davrida Xuroson va Movaronunaxrdagi madrasalarga yangi nafas keldi. Bu davrda bu davrda tashkil etilgan ta’lim muassasalari ancha ko’payib, vaqf nomidagi ta’lim muassasalari kengaydi. Madrasa o‘quv dasturiga yozuv darslari, astronomiya va matematika darslari ham kiritilgan. Hadis ilmi madrasalarda Payg‘ambarimiz so‘zlari va amallarini o‘z ichiga olgan kurs sifatida o‘qitildi. Temur rahnamoligida har bir shaharda madrasa ochilishi bilan zodagonlar va boy kishilar madrasalarga moddiy yordam bera boshladilar. Shunday qilib, madrasada faoliyat yuritayotgan ustozlar o‘zlarining ilmiy darajalariga mos ravishda yashashlari uchun moddiy imkoniyatlarga ega bo‘lganlar.

XV asrda tarix fani rivoj topdi, Hofizu Abru “Zubdan tavorix” (Tarixning qaymog‘i) kitobi yozib, unda 1427 yilgacha voqealar bayon etildi. Abdurazzoq Samarcandiy buni davom ettirib, “Ikki saodatli yulduzning chiqish joyi va ikki dengizning qo’shilish joyi” asarida 1471 yilgacha voqealarni bayon etdi. “Ravzatus safo” asrini yozgan Mirxon, “Xabibus siyar” asarini yozgan Xondamir asarlarining bir qismi sulton Husayn hukmronlik qilgan davrga bag‘ishlandi.

Shu asarlarda qator ilm maskanlari: Shayboniyxon madrasasi, Abdurahim Sadr madrasasi, Mirarab madrasasi, masjidi Kalon va boshqalar qurildi.

Xususiy maktablar yuzaga keldi, uyda muallim yollab o‘qitish odat tusiga kirdi. Shahar, qishloq, ovullarda ochilgan maktablarda o‘qitish 6 yoshdan boshlandi. Bolalar maktabda alifbe urganar, ayrim harflarni chizishni mashq qilar edilar. O‘quvchilar maktablarda savod chiqargacha madrasaga kirib diniy va dunyoviy fanlardan bilim olardilar. G‘arbiy Turkiston sivilizatsiyasining yorqin davrlaridan biri bo‘lgan Temuriylar davrida (1350-1510) hamma, ayniqsa, Temuriylar sulolasi vakillari san’at va ilm-fanga katta ahamiyat bergenlar. Mug‘ullar bosqini XIV davrida Sharqiy Turkistondan Mavaronunnaron va Xurosonga ko’chib kelgan ayrim olimlar va san’atkorlar. XIX-asrdan boshlab til, adabiyot, ilm-fan va san’at sohasidagi tazyiqlardan qutulib, “Temuriylar madaniyati” deb nomlangan davrni yaratdilar[1] Temuriylar davrida hukmdorlar ilm-fanga bevosita hissa qo’shgan, hatto madrasalarda ma’ruzalar o‘qigan. Hukmdorlarning hammasi, xususan Temur ham olimlar va ruhoniylarni himoya qilib, ularga zarur hurmat va ehtirom ko‘rsatgan. Arab tarixchisi Ibn-i Arabshoh Temur uchun: “U olimlarni qo’llab-quvvatlar, sayyid va shariflarni atrofdan ajratmas edi. U ulamolarni va fazilatlarni munosib hurmat qiladi va ularni boshqa odamlardan ustun qo'yadi; Ularning har biriga o‘z darajasiga qarab muomala qilar, noz-ne’matlar berar, barcha san’atkorlarga ehtirom ko‘rsatar edi”[2]. Temur o‘zi zabit etgan yurt va shaharlardagi olimlar, fazilatli kishilar, kasb egalari, hunarmandlarni oilalari bilan poytaxt Samarqandga olib borib, ularning san’ati bilan shug‘ullanish uchun bor kuchini sarflar edi. Shu sababli Samarqand o‘z davrining eng go‘zal shaharlaridan biriga aylangan.

Samarqandning ulug‘vorligini juda yaxshi ta’riflagan Ispaniya elchisi Klavixo “Temur Samarqandni dunyoning eng oliyjanob va mukammal shahriga aylantirish uchun doimo savdo sotiqni rag‘batlantirgan, o‘zi zabit etgan joylardan eng yaxshi va foydali odamlarni to‘plagan, shuningdek, har doim savdo-sotiqni qo’llab quvvatlagan. Poytaxtiga eng mohir hunarmandlarni olib keldi”. Shuningdek, Damashqdan barcha to‘quvchilik, shoyi, shisha, chinni, o‘q va qurol-aslaho ustalarini, shuningdek, Anadoludan to‘quvchi, zargar, me’mor va boshqa san’at ustalarini Samarqandga olib kelgan. Bu odamlar dunyodagi eng mohir hunarmandlardir. Klavixo ko‘p millat va turli kasb egalari to‘plangan Samarqand aholisi qariyb 150 000 dan oshib ketishini va Temur Samarqandni qanday ilm-fan, madaniyat va san’at markaziga aylantirganini yozib qoldirgan. A.



Temur tomonidan Samarqandda yaratilgan bu madaniy, ilmiy va san'at muhitidan uning kichik o‘g‘li Shahrush va uning o‘g‘illari Ulug‘ Bey va Mirzo Boysungur eng ko‘p bahramand bo‘ldi. Ular olim va hunarmandlarga homiylik qilibgina qolmay, ilm-fan, san’at va she’riyatga ham qiziqdilar

Temuriylar davlatida shahzodalar va sulola a’zolarining ta’limolishi davlat burchi hisoblanganligi sababli shahzodalarga birinchi ta’lim Temuriylar saroyida berilgan[4]. Gumanitar fanlar, mantiq, falsafa, kalom, matematika, tibbiyot, tarix, adabiyot, rasm, arab va fors saboqlarini olganlar va bularning barchasini Jurjoniy, Taftazani, Muhammad Jezeriden, Hoja Abdulmalik kabi davrning eng mashhur ustozlaridan olganlar. Jumladan, Shohruh Samarqandda to‘plangan olimlardan ta’lim olgan, munozara kengashlarida qatnashgan va o‘zini ilmiy jihatdan rivojlantirgan. Ruhoniylar, olimlar, san’atkorlar va shoirlarga homiylik qilish orqali otasining an’anasini davom ettirgan.

Temuriylar davrida mumtoz madrasa tushunchasidan tashqarida ta’lim beruvchi ikkita muassasani ko‘ramiz.

Birinchisi, “Boysung‘ur akademiyasi” Hirotdagi Mirzo Boysung‘ur qurdirgan qasrn tasviriy san’at akademiyasiga aylantirgan.

Ikkinchisi, Samarqandda Ulug‘bek tomonidan asos solingen “Astronomiya” maktabidir. Ikkala maktabda o‘qitiladigan kurslar o‘z davridan ancha oldinda edi va keyingi davrlarga fanlar rivojiga ijobjiy ta’sir qildi.

Ko‘pchilik olimlar Ulug‘beknin dunyoqarashiga kata ta’sir ko‘rsatgan.. Olingen o‘quv mashg‘ulotlari bilan qisqa vaqt ichida ushbu sohaning yetuk insonlaridan biriga aylandi. Tarixga “taxtdagi olim” nomi bilan kirgan Ulug‘bekning ustozlari orasida “Zamonning Aflatunu” nomi bilan mashhur astronomiya va matematika mutaxassisni Qodizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshidiy, Al-Kashi va Ali Qushchi kabilar bor edi. Yoshligida Nasuriddin Tusiy tomonidan 1259 yilda asos solingen Meraga rasadxonasini ziyorat qilgan Ulug‘bek o‘zi ko‘rgan rasadxona xarobalaridan ta’sirlanib, astronomiyaga juda qiziqadi.

Shohruhning o‘g‘li Mirzo Boysung‘ur chindan ham serqirra shaxs edi. U davlat boshqaruvida ishlab yurib, san’at va adabiyotning chinakam himoyachisi ham bo‘lgan. Uning saroyida davrning ko‘zga ko‘ringan janoblari, olimlar, rassomlar va musiqachilar ishtirokida majlislar tashkil etilgan. Boysung‘uriy uslubni yaratgan Mirzo Boysung‘ur muvaffaqiyatining sabablaridan biri, bobosi Temur Samarqandda to‘plagan muhim xattotlik, naqqoshlik va bezak ustalarining Ulug‘bek chiqqargan farmon bilan o‘z uylariga qaytishiga ruxsat berilgani bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, Samarqandda qolishni istamagan alloma va hunarmandlar Hiro, Sheroz kabi shaharlarga borib, bu joylarni ilmiy-madaniy markazga aylantirishga hissa qo‘shadilar. Bu yerda xattotlik, illyuminatsiya va kitob muqovasi kabi davrning eng keng tarqalgan san’at sohalarida malakali kishilar uchun ish muhiti yaratildi

Adabiyotlar

1. Alan, H.. (2004). "Temuriylarning fan va san'atga yondashuvlari va ba'zi so'nggi rassomlar", Bilig, 30: 151-171
- 2 .Özergin, M. K. (1976), “Temürlü Sanatına ait eski bir belge: Tebrizli Ca’fer’in Bir Arzi”, Sanat Tarihi Yıllığı, İstanbul 1976, s.472-516.
3. Togan, ZV, (1949), Buyuk Turk hukmdori Shohruh, . Adabiyot fakulteti, Turk tili va adabiyoti jurnali,
4. Amir Temur. “Temur tuzuklari”. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa birlashmasi, 1991, 66-bet
5. İbn Arabşah, (2012), Acaibu'l Makdur, (çev: Ahsen Batur), Selenge yay., İstanbul 2012



**ROSSIYA IMPERIYASI TOMONIDAN O’RTA OSIYONI BOSIB OLISH UCHUN
ISTILOCHILIK HARAKATLARI**

Sobirova Xusnora Anvar qizi
Xorazm viloyati Shovot tumani
28-sod matabning tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Rossiya imperiyasi tomonidan O’rta Osiyoni bosib olish uchun istilochilik harakatlari haqida malumot berilgan.

Kalit so’zlar: Rossiya, Xiva, Buxoro, Qo’qon, Fon Kaufman, qo’shin, jang, hujum.

Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi to‘rt bosqichda ro‘y berdi.

I bosqich – 1847-1864- yillar bo‘lib, bu davrda Rossiya Imperiyasi armiyasi 1847- yili Sirdaryoning quyi oqimini bosib oldi. 1853- yilda Qo‘qon xonligining Oqmasjid qal’asi bosib olindi va uning o’rnida Perovsk istehkomi qurildi. 1864- yilda chor qo’shinlari Pishpek va Toqmoqni bosib oldilar.

II bosqich – 1865- yildan boshlanib, 1868- yilga qadar davom etadi. 1865- yilda Toshkent, 1866- yilda Xojand, Oratepa, Jizzax, 1968- yilda Samarqand va Kattaqorg‘on shaharlari bosib olindi.

III bosqich – 1873- yili fevralidan to 1879- yil avgust oyigacha davom etadi. 1873- yili Xiva, 1876- yil Namangan bosib olindi. Biroq Go‘ktepa qal’asini qamal qilayotganida chor qoshinlari mag‘lubiyatga uchradi.

IV bosqich – 1880- yil oxiridan to 1885- yilga qadar davom etadi. 1881- yilda Go‘ktepa (Ashxobod) qal’asi bosib olindi, 1885- yilda esa ingliz ofitserlari qomondonlik qilgan afg‘on otryadlari tor-mor etildi.

Rossiya Imperiyasi O’rta Osiyoga bosqinining ayrim tafsilotlariga to‘xtalamiz. 1859- yilda Aleksandr II Qo‘qon xonligini bosib olish tog‘risida qaror qabul qildi. Qo‘qon xonligining hali 1853- yildayoq bosib olingan sobiq Oqmasjid qal’asi bo‘lmish “Perovskiy istehkomi” hujumning tayanch manziliga aylandi. Qo‘qonliklar qahramonlarcha mudofaa qilishiga qaramasdan, Oqsuv, Peshtepa va Chordevor qal’alari ham bosib olindi. 1864- yil iyun oyida Turkiston, oktyabrda esa Chimkent shaharlari bosib olindi. 1864- yil oktyabrda general Chernyaev Toshkent shahrini egallash maqsadida hujum boshladidi. Toshkent aholisiga yordamga lashkarboshi Mulla Alimkul Qo‘qondan yetib keldi va shahar mudofaasini tashkil etishga kirishdi. Shahar mudofaachilari bu hujumni qaytardi va chor qoshinlari Chimkentga chekinishga majbur bo‘ldi. Bu og‘ir mag‘lubiyat Rossiya Imperiyasini to‘xtatib qololmadi. 1865- yilning bahoridan general Chernyaev Toshkentga qarshi yangi hujum harakatlarini boshlab yubordi.

Chernyaev 1865- yil 7- mayida Toshkentga yaqinlashib keladi. Jang dahshatli tus olib, ikki tomondan ko‘p qurbanlar va yaradorlar bo‘ladi. Jangda Mulla Alimkul og‘ir yarador bo‘lib, Toshkentda vafot etadi. Chernyaevning buyrug‘i bilan uylar yondirildi, egalari otib tashlandi, birorta ham yoshu qariga shavqat qilinmadidi. 1865- yil iyun oyida Toshkent taslim bo‘ldi. Orenburg general-gubernatorligi tarkibida Turkiston viloyati tuzildi, uning harbiy gubernatori etib M. Chernyaev tayinlandi.

Chernyaev 1866- yil yanvarida Jizzaxga hujum qiladi va mag‘lubiyatga uchraydi, oqibatda Chernyaev Sankt-Peterburgga chaqirib olinadi, o’rniga general D. Romanovskiy tayinlandi. U Sibir va Orenburgdan yordam olib Buxoro amirligiga qarshi yurish boshladidi. 1866- yil may oyida bo‘lgan jangda amir Muzaffar qo’shinlari yengildi. Romanovskiy Xo‘jandni egalladi. 1866- yil avgustda Orenburgdan general-gubernator Krijanovskiy Toshkentga keldi va Romanovskiy bilan birgalikda Buxoro amirini tobe qilish harakatini boshlashdi. Katta qo’shin tortib 1866- yil oktyabrda O’ratepa viloyati, Zomin qal’asini bosib oldi, so‘ng Jizzaxni egalladi.

Podsho Aleksandr II 1867- yil 14- iyulda Turkiston general-gubernatoriligi va Turkiston harbiy okrugini tuzish tog‘risida Farmon berdi. General-gubernator va okrug qo’mondoni etib general-ad'yutant Fon Kaufman tayinlandi. Unga keng vakolat berilib harbiy-ma’muriy, moliyaviy-iqtisodiy, fuqarolik ishlarini mustaqil hal qilish huquqlari berilgan edi, shu boisdan u “Yarim podshoh” deb atalardi. Bu tadbir Rossiya Imperiyasining O’rta Osiyoni bosib olish yo’lidagi harakatida yangi bosqich bo‘ldi.

1868- yil Buxoro amiri qo’shinlari bilan Rossiya Imperiyasi qo’shinlari o’rtasida Chonponota



tepaligida jang bo'ldi. Bu hujumga Turkiston general-gubernatori Kaufmanning shaxsan o'zi boshchilik qildi va Samarqand egallandi. Amir Muzaffar 1868- yilda Fon Kaufman bilan sulh tuzishga majbur bo'ldi va Rossiya imperatorining vassaliga, ya'ni xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil aloqlar qila olmaydigan qaram davlatga aylantirildi. Sulhga binoan Xo'jand, Oratepa, Jizzax, Samarqand, Kattaqorg'on Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritildi, amir 500 ming som tovon tolash majburiyatini oldi.

Fon Kaufman 1873- yil bahorida Xiva xonligiga yurish boshladi. Amudaryo bo'yalarida qirg'inbarot janglar bo'ldi. 1873- yil Kaufman otryadlari Amudaryodan o'tib Xazoraspni egalladi, Qo'ng'irot va Xo'jayl shaharlari, Mang'it qal'asi zabt etildi, talandi. Istilochi qo'shinlar Xivani zabt etadi. 1873- yil 12- avgustda Kaufman bilan Rahimxon uchrashuvi bo'ldi va Gandimiyon shartnomasi imzolandi. Shartnomaga muvofiq, Xiva xonligi Rossisiyaning vassaliga aylantirildi, Amudaryo quyi oqimining o'ng tomonidagi yerlar Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritildi, xonlikka 2 million 200 ming so'm tovon to'lash yuklatildi, Rossiya savdo-sanoatchilari Xiva xonligida boj va majburiyatlarni bajarishdan ozod etildi.

Kaufman Xiva xonligi taqdirini hal qilgach, Qo'qon xonligini tugatishga kirishdi. Turkiston general-gubernatori K. P. Kaufman Qo'qon xonligidan bosib olingan yerlarni Rossiya tarkibiga kiritilganligini rasmiy qonunlashtirib olish maqsadida polkovnik Shaufusni Xudoyorxon huzuriga yubordi va xon 1868- yil uni qabul qilib, shartnomaga muhr bosdi. Unga ko'ra, rus savdogarlariga katta imtiyozlar berildi. Xonlik tashqi olamdan uzib tashlandi va Rossisiyaning siyosiy qaramligiga tushib qoldi. Qo'qon xonligi bosib olinishiga qarshi katta g'alayon yuz berdi. Bu qozg'olon 1873-1876- yillarda bo'lib otib, unga Abdurahmon oftobachi va Po'latxon rahbarlik qilgan. Ushbu xalq harakati bostirildi. Qo'qon xonligi tugatilib, uning o'rniда Farg'ona viloyati tuzildi va Turkiston general-gubernatorligiga qo'shib olindi. Viloyatga general Skobelev gubernator etib tayinlandi. Qo'qon xonligining aholisi uch million so'm tovon to'lashga majbur qilindi. Rossiya Imperiyasi O'rta Osiyoda mustamlakachilik siyosatini olib bordi. Milliy davlatchilik tugatildi. O'lkada mutlaq hokimiyat general-gubernator qo'lida to'plandi. General-gubernatorlik kengashi va 4 bo'limdan iborat mahkama tuzildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiyo o'rta ta'lim maktablarining tarix fani darsliklari.
2. www.tarix.uz



O'QUVCHILARDA TARIXNI BILISH ORQALI O'ZLIKNI ANGLATISH USULLARI

Ermetova Dilnoza Palvannazirovna

Qo'shko'pir tumani 5-son IDUM o'qituvchisi

Telefon: +998 (91) 570 91 65

ermetovadilnoza_5scool@inbox.uz

Adamboyevna Gulbahar Sobirovna

Qo'shko'pir tumani 5-son IDUM o'qituvchisi

Telefon: + 998 (99) 944 30 82

gulbahar.sobirovna_5scool@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola o'quvchilarda tarixni bilish orqali o'zlikni anglatish haqida.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, Zarafshon, Farg'ona vodiysi, Murg'ob daryosi, qadimgi davr madaniyati.

Mavoraunnahr Markaziy Osiyo xalqlari uzoq tarixga egadir. Eramizdan avvalgi I ming yilliklarda bu o'lkada, yunon manbalarida ko'pincha Skif(sak)lar deb nomlangan xalqlar istiqomat qilgan. Lekin, aholi o'zi yashagan joyining nomiga qarab turlicha atalgani ham adabiyotlarda keltirilgan. Masalan, Amudaryo quyisida yashaganlar xorazmliklardir; Zarafshon vodiysida yashaganlar sug'dlar; Murg'ob daryosi vodiysida yashaganlar marg'iyonlar; Farg'ona vodiysida yashaganlar -parkanlar kabi nomlar bilan ma'lum bo'lgan.

Markaziy Osiyoning shu vodiylarida boshlang'ich madaniyat markazlari vujudga kelgan. Eramizdan avvalgi V-VI asrlarga kelib bu o'lkalar Eron davlati tamonidan bosib olingan va shu davrda eng yirik dinlardan - Zardushtiylik shakllangan. Taxminan shu davrlardan boshlab, Markaziy Osiyoda shaharlar va shahar madaniyati ham tashkil topib bordi.

Eramizdan avvalgi IV asrga kelib Markaziy Osiyoning Aleksandr Makedonskiy tamonidan bosib olinishi natijasida, bu yerda yunon va yerli xalqlarning qorishgan davlatlari vujudga keldi. Yerli xalqlar madaniyatiga, yunon madaniyati, afsonalari ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi va aksincha, xalqimiz hayoti, afsonalari haqida ma'lumotlar, qadimgi yunon mualliflarining asarlariga kirib bordi.

Masalan, Klement Aleksandrskiy, Ksenofont, Strabon, Ptolomey, Geredot asarlarida qadimgi xalqlarimizdagi turli madaniy – ma'naviy qadriyatlar, xalq qahramoni To'maris, Spitamen, Shiroq haqida ma'lumotlar va afsonalar keltiriladi. Bu davrda Markaziy Osiyoda keng tarqala boshlagan Zardushtiylik sof din bo'lib qolmasdan o'z davri ma'naviyatining eng muhum yo'nalishlarini tashkil qildi, o'sha davr xalqining madaniyati, ma'naviyati urf-odati axloqi kabi masalalarni o'z ichida aks ettiradi va ularga ham ta'sir ko'rsatadi. Zardushtiylikning asosiy qoidalari ayrim mualliflarning ta'kidlashicha Xorazmda yaratilgan "Avesto" da o'z ifodasini topgan.

Qadim kitoblarda ayon tarixing,

Yovlar ham tan bergen so'zga mushtarak.

Muqaddas "Avesto" ichra ta'rifing,

Axuramazdaning mehridan darak!.

Azizim Xorazm-go'zal Xorazm!

Zardushtiylik dastlab mehnatkash xalqning axloqiy qoidalari o'zida ifodalagan bo'lsa, keyinroq ruhoniylar qo'lida siyosat yurgizishning asosiy quroliga aylanib qoldi. Bu davrga kelib Xorazmdagi yerli xalqning davlatchiligi shakllana boshladи. V-VI asrlarga kelib hukumron ruhoniylarga, zardushtiylikka qarshi qaratilgan, Mazdak boshlab bergen, mazdakizm ta'limoti shakllandi. Bu ta'limot dehqonlarni ularning huquqlarini himoya etib, tenglik, adolat o'rnatishga xizmat qildi.

Qadimgi davr madaniyati, ma'naviyati, jumladan, axloq, ma'rifat, ta'lim tarbiya haqidagi fikrlar xalq og'zaki adabiyotida folkorda turli xalq an'analarida ham o'z aksini topib kelgan.

Go'ro'g'li, Alpomish, Rustam haqidagi dostonlarda xalqimizning qadimgi urf-odatlari, ruhiyati, xulq - odobolarining ifodasini uchratishimiz mumkin. Bunday ma'lumotlar qadimgi sug'd, xorazm, turkiy yozuvlar namunalarida saqlanib qolgan manbalarda ham uchraydi.

VIII asrga kelib Markaziy Osiyoni arablar istilo qildilar va ular o'zlarini bilan yangi din, Islomni, olib keldilar va bosib olingan xalqlar orasida turli yo'llar bilan shu dinni tarqata boshladilar. Albatta, Markaziy Osiyoni arablar tomonidan bosib olinishi osonlik bilan bo'lmadi. Ko'plab qarshiliklar



bo‘lib o‘tdi. Lekin, VIII asr oxiriga kelib Markaziy Osiyoda arab xalifaligining hukumronligi va islom dini uzil-kesil o‘rnatildi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, tarixiy ongini yuksaltirish, tarixiy bilim va tafakkurini shakllantirish, tarixiy joylarga ko‘proq sayohatlar tashkil qilish, bizning ota–bobolarimiz, o‘tmishimiz qanday bo‘lganligini, ota-bobolarimiz mustaqillik uchun qanday kurashlar olib borganliklarini, mustaqilligimizning qadriga yetishi, uni asrab avaylashga, ularni vatanga mehr-muhabbatli qilib tarbiyalash, tarixiy madaniy, ma’naviy merosimizni asrab avaylashga o‘rgatishimiz, maktablarda turli tarixiy tadbirlar o‘tkazish bularning tarixiy ongini rivojlantirishning muhim omillari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.:O‘zbekiston. 2017,2018,2019.
- 2.Xayrullayev M.M. Ma’naviyat yulduzları.T.:Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.
3. Ma’rifat yog‘dusi.Ilmiy-uslubiy, adabiy-badiiy jurnal.2009.3-son



JAMOAT TRANSPORTI: TRAMVAY TARIXIGA BIR NAZAR

Kupaysinov Ismoil
NamDU o'qituvchisi
+998901540717

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamoat transporti hisoblanmish tramvaylar va ularning vjudga kelishiga doir ayrim mulohazalar berilgan. Toshkent shahridagi dastlabki tramvaylar faoliyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: elektr toki, temir yo'l, avtobus, kommutatsiya, ot vagonlari

Tramvay (*inglizcha tram-vagon, trolleybus va way-yo'l*) yerosti elektr temir yo'l, yo'lovchilarни belgilangan yo'naliшlar bo'yicha tashishga mo'ljallangan ko'cha va qisman ko'cha jamoat transporti turi, asosan shaharlarda qo'llaniladi[1].

Tramvay XXI asr boshlarida mavjud bo'lgan shahar yo'lovchi jamoat transportining eng qadimiy turlaridan biri bo'lib, XIX asrning birinchi yarmida paydo bo'lgan, dastlab ot tortish orqali harakatlantirilgan.

Pirotskiy tomonidan ixtiro qilingan va sinovdan o'tkazilgan eksperimental elektr tramvay birinchi marta 1880 yilda Sankt-Peterburgda (*Rossiya*) paydo bo'lgan va muntazam tramvay qatnovi birinchi marta 1881 yil may oyida Berlin (*Germaniya*) chekkasida Siemens va Halske kompaniyasi tomonidan ishga tushirilgan[2].

Elektr va temir yo'l transportida yangi rivojlanish bo'ldi. Tramvaylar elektr tokini o'tkazuvchi kabellar orqali harakatlanar edi, ular o'z yo'llariga bog'langan. Tramvaularni kommutatsiya qilish juda oddiy edi: temir yo'l liniyalari, allaqachon mavjud edi va ko'pchilik shaharlarda yangi yo'l qo'shimchalari bilan eski ot vagonlaridan foydalanishgan. Tez orada yangi tramvay liniyalari paydo bo'ldi va shaharlar yanada kengaya boshladи.

Ushbu kengayish shaharni rejalashtirishning yangi davrini boshladи, bu yerda "yurish imkoniyati" endi asosiy xususiyat emas edi va turar-joy obyektlari, shahar markazidagi savdo markazlari rivojlna boshladи. Tramvay ixtirosi bugungi kunda biz bilgan keng tarqalgan, gavjum megapolislarga o'z o'rnini bo'shatib berdi. Tramvay liniyalari ko'pincha shahar markaziga to'g'ridan-to'g'ri kelganligi sababli, bu hududlar hashamatli chakana savdo tarmoqlari, million dollarlik korxonalar va boshqa joylar uchun asosiy ko'chmas mulk joylariga aylandi, ular tashqarida transport markazi bilan yanada kengroq auditoriyaga o'yin-kulgi taqdim etishi mumkinligini angladilar. ularning old eshigi.

Ot aravalari yo'lovchilarни faqat bir necha bekat bo'ylab olib o'tishlari mumkin bo'lsa-da, elektr tramvaylar ko'p kilometrlarni bosib o'tishlari mumkin edi, bu esa jamoat transporti harakatini tashqariga va oxir-oqibat shahar chekkasiga, o'sha paytda "ko'cha vagonlari" deb nomlanuvchi hududlarga cho'zish imkonini beradi. Ushbu kichik shaharchalar qadimgi shaharlarning zich, odam gavjum joylarini saqlab qolgan, ammo "katta shahar" ning xarid qilish, ovqatlanish va ko'ngilochar imkoniyatlariga ega bo'lish uchun eng yaqin yirik shaharga bitta temir yo'l liniyasini joylashtirgan edi.

Tramvaylar tezda ommabop transport turiga aylandi va avvalgi jamoat transporti xizmatlariga nisbatan katta yaxshilanish bo'ldi. Ammo ikkita yirik voqeа butun dunyoga zarar yetkazishi va chavandozlar va tranzit kompaniyalari uchun qiyinchilik tug'dirmoqchi edi. Buyuk Depressiya 1930-yillarda keng tarqalgan liniyalarning yopilishiga olib keldi va Ikkinci Jahon Urushining rezina shinalar va benzinga qattiq ratsioni boshqa ko'plab allaqachon muvaffaqiyatsiz bo'lgan liniyalarning taqdirini muhrrab qo'ydi. Shunga qaramay, ba'zi tramvay liniyalari ochiq qoldi, boshqalari esa avtobus liniyalari aylantirildi[3].

Toshkent shahrida eng qadimiy va keng tarqalgan transport vositasi bu-tramvay hisoblanadi. Belgiyaning "Toshkent tramvayi" aktsiyadorlik jamiyati 5 yil mobaynida temir yo'l vokzalidan to Chorsu bozorigacha bo'lgan masofada konka (ot tortadigan) tramvay liniyasini qurishni amalga oshirgan. 1901-yil 30-martda birinchi liniyasi ochilgan. 1947 yil 5-noyabrda tramvaylar elektr quvvatida harakatlana boshlaganlar. Qariyalar hanuzgacha birinchi konkalarini eslaydilar. 1940-yillargacha bunday tramvaylar shahardagi yagona umum foydalniladigan transport vositasi bo'lgan. 1926-yildan boshlab Toshkentda "Bents-Gaggenau" firmasining 40 kishiga bo'ljallangan 7 ta avtobusi yo'lovchi tashish boshlagan [4]. Urushdan so'ng Toshkentga va respublikamizning



boshqa shaharlariga ko’p joyli ZIS-154 avtobuslari keltirilgan va ular avtobusda yo’lovchi tashishni dastlabki qadamlari bo’lgan. Shundan so’ng shaharlarda avtobuslar xizmatidan foydalanish avj ola boshlagan.

1947-yilda Toshkentda Temir yo’l vokzali – Eski jo’va yo’nalishi bo’yicha birinchi trolleybus yo’nalishi ishga tushirilgan.

Shahar kegayib, uning aholisini soni tobora ko’payib borishi bilan tramvay liniyalari, trolleybus va avtobus marshrutlari ham tobora o’zayib borgan. Biroq shaharda yo’lovchi tashishning o’sishi natijasida muammolarni hal etishning yangi yo’llarini izlashga kirishilgan va shu asosda metropoliten qurish g’oyasi yuzaga kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Трамвай // Большая российская энциклопедия : [в 35 т.] / гл. ред. Ю. С. Осипов. — М. : Большая российская энциклопедия, 2004—2017.
2. C. N. Pyrgidis. Railway Transportation Systems: Design, Construction and Operation. CRC Press, 2016. P. 156
3. Габарда Д. (*Dusan Habarda*). Новые транспортные системы в городском общественном транспорте = Nove dopravne systemy v mestskej hromadnej doprave / Перевод со словацкого канд. техн. наук В. В. Косминой. — М.: Транспорт, 1990. — 216 с. — ISBN 5-277-00873-X.
4. История автобуса, или немного о ташкентском транспорте (Версия для печати) | mg.uz

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 3-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.09.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000